



XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 30 - dekabr

VI-70-237-11-162-K/22

Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022-yil 30-dekabrda “Farg‘ona viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-171-11-0-K/22-son qarori hamda Farg‘ona viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-dekabrda 01/01-38/2751-sonli xatiga muvofiq xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 30-dekabrda “Farg‘ona viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-171-11-0-K/22-son qarori Rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan ishlab chiqilgan xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 30-dekabrda “Farg‘ona viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-171-11-0-K/22-son qaroriga muvofiq 2023-yilga tuman mahalliy byudjetiga viloyat mahalliy byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 126,1 mlrd so‘m miqdorida tasdiqlanganligi hamda tuman mahalliy byudjeti daromadlari 128,8 mlrd so‘m va xarajatlari esa 255,0 mlrd so‘m miqdoridagi prognozlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qarorga asosan 2023-yilda:

a) mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu

jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o'tkazib berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

b) quyidagi soliq turlari tuman mahalliy byudjetiga to'liqligicha o'tkazib berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;

davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari;

v) shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga quyidagi ulushlarda:

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig'idan tushumlarning 20 foizi;

yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'larining 50 foizi;

yuridik shaxslarning yer solig'i va mol-mulkiga solinadigan soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushgan tushumlarning 50 foizi;

davlat byudjetiga undiriladigan jarimalarning 30 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) 50 foizi o'tkazib berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2023-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari 1 va 2-ilovalarga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman mahalliy byudjetidan 2023-yilgi hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3 va 4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

6. Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg'armalari mahalliy byudjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2023-yil uchun tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 2,4 mlrd so'm miqdorida tasdiqlansin.

Tuman hokimligi zaxira jamg'armasi mablag'larini tuman byudjetida ko'zda tutilmagan, kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy

beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishini ta'minlasin.

7.Qarorga ko'ra, 2023-yil uchun tuman byudjetida yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar o'tgan yilga nisbatan o'zgarishsiz ya'ni 767,0 mln so'm miqdorda belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8.Tuman mahalliy byudjeti daromadlarning prognoz ko'rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilayotgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

9.Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo'shimcha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag'lar mahalliy byudjetning ijrosi davomida shakllangan qo'shimcha manbalar hisobidan amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yilsin.

10.Tuman hokimligi hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini yetarli darajada rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta'minlash;

mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarini moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar hokimliklar tomonidan majburiy tartibda o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

mahalliy byudjetning qo'shimcha daromadlarini 30 foizdan kam bo'lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirishni, veb-saytlariga ularning natijalarini joylashtirsin.

11.Tuman hokimligi byudjet daromadlari va xarajatlarining ko'rsatkichlarini bajarilishini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish, byudjet mablag'lari taqsimlovchilarning byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to'g'risida xalq deputatlari tuman Kengashiga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

12.Mazkur Kengash qarori bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining "Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov zimmasiga yuklatilsin.

13.Ushbu Kengash qarori rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiritiladi.

**Xalq deputatlari Uchko‘prik
tumani Kengashi Rahbari**



A. Q. Asqarov

Xalq deputatlari Uchko'prik
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-70-237-11-162-K/22-son
qaroriga
1-ilova

**Uchko'prik tumani mahalliy byudjetlarining daromadlari bo'yicha 2023-yil uchun
BALANSI**

№	Daromadlar nomi	ming so'm Uchko'prik tumani
I.	Tartibga soluvchi daromadlar	36 504 500
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	36 504 500
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0
II.	Biriktirilgan daromadlar	53 458 100
	To'liq tuman mahalliy byudjetiga	33 303 000
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	14 528 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1 350 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 939 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	11 205 000
5	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	281 000
	Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromadlar	20 155 100
1	Qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	109 000
2	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	7 532 200
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 360 500
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i	5 068 500
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 216 000
6	Jarimalar	2 868 900
III.	Mahalliy byudjet daromadlari prognozi	89 962 600
IV.	O'tkazib beriladigan daromadlar	38 949 376
	<i>Aholi soni (ming kishi) 01.07.2021 holatiga</i>	240
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	15 757 018
15	Mobil aloqa xizmatini ko'rsatganlik uchun aksiz solig'i	6 758 845
16	Tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i	16 433 513
V.	Mahalliy byudjetlarning jami daromadlari	128 911 976
VI.	Mahalliy byudjetlarning jami xarajatlari	255 030 688
VII.	Transfertlar	126 118 712

Xalq deputatlari Uchkoʻprik
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-70-237-11-162-K/22-son
qaroriga
2-ilova

**Uchkoʻprik tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz
koʻrsatkichlari**

ming soʻmda

T/R	Daromad turlari	Jami
	Jami daromadlar	128 911 976
I.	Ragʻbatlantiruvchi (Stimuliruyushie) daromad	36 504 500
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	36 504 500
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi	
II.	Biriktirilgan daromadlar	53 458 100
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	33 303 000
1	Yagona soliq toʻlovi	14 528 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi (ITD)	1 350 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	5 939 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 205 000
6	Ijara toʻlovlari	281 000
	Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari oʻrtasida taqsimlanadigan daromadlar	20 155 100
1	Benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	7 532 200
2	Noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qanʻidan foydalanganlik uchun soliq	109 000
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 360 500
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer soligʻi	5 068 500
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 216 000
6	Jarimalar	2 868 900
III.	Taqsimlanuvchi daromadlar (formula boʻyicha)	38 949 376
	<i>Aholi soni (ming kishi)</i>	<i>240</i>
1	Alkogolga aksiz soligʻi (shu jumladan pivo)	15 757 018
2	Mobil aloqaga aksiz soligʻi	6 758 845
3	Tamaki mahsulotlari boʻyicha aksiz soligʻi	16 433 513

Xalq deputatlari Uchko'prik
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-70-237-11-162-K/22-son
qaroriga
3-ilova

**Uchko'prik tumani mahalliy byudjetlarining xarajatlari bo'yicha 2023-yil uchun
BALANSI**

ming so'mda

Ko'rsatkichlar		Uchko'prik tumani
	Xarajatlar - jami	255 030 688
1.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami	197 306 404
	<i>shu jumladan:</i>	
1.1	Maorif	40 864 941
	- maktabgacha ta'lim	25 308 722
	- umumiy ta'lim	15 556 219
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Sog'liqni saqlash	86 538 602
1.3	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	0
1.4	Madaniyat	1 629 071
1.5	Sport	3 700 623
1.6	Fan	0
1.7	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensasiyalar	64 443 000
1.8	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	27 600
1.9	Fuqarolarga etkazilgan zararni koplash	0
1.10	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	102 567
2.	Iqtisodiyotga xarajatlar	19 381 203
2.1	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari	3 000 000
2.2	O'simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari	0
2.3	Obodonlashtirish	11 098 871
2.4	Ko'p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	0
2.5	Issiqlik ta'minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	0
2.6	Issiqlik ta'minot korxonalariga subsidiyalar	0
2.7	Suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari	1 878 693
2.8	O'rmon xo'jaligi tashkilotlari	0
2.9	Davlat ekologiya qo'mitasining hududiy boshqarmalari	0
2.10	Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	516 965
2.11	Pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy bo'limlarini saqlash xarajatlari	0
2.12	Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining hududiy bo'limlarini saqlash xarajatlari	0
2.13	Veterinariya qo'mitasi	1 038 674
2.14	Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash	0
2.15	Avtobus yo'nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	0
2.16	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsialari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari	1 848 000
3.	Markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	0
3.1	Markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	0

3.2	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	
3.3	Umumta'lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	
3.4	Sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	
3.5	Meliorasiya obyektlari	
4.	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	19 466 541
5.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash	3 946 682
6.	Zahira jamg'armasi	2 401 008
7.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	12 528 850
8.	Boshqa xarajatlar	0
	<i>shu jumladan:</i>	
8.1	Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0
8.2	Qabullar uyini saqlash xarajatlari	0
8.3	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	0
8.4	Prezident maktablarini qurish uchun jalb etilgan qarz mablag'larini qaytarish xarajatlari	0

Xalq deputatlari Uchko'prik
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-70-237-11-162-K/22-son
qaroriga
4-ilova

**Uchko'prik tumani mahalliy byudjetidan 2023-yilgi hududiy byudjet mablag'larini
taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

		ming so'm
T/r	Tumanlar va shaharlar byudjetlaridan mablag' oluvchi hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	Summa (ming so'm)
1	Maktabgacha ta'lim bo'limi	25 308 722,0
2	Xalq ta'limi bo'limi	15 556 219,0
3	Tibbiyot birlashmasi	86 538 602,0
4	Madaniyat bo'limi	1 800 921,0
5	Sportni rivojlantirish bo'limi	3 700 623,0
6	Aholi bandligiga ko'maklashish markazi	666 611,0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	1 038 674,0
8	Irrigasiya bo'limi	1 878 693,0
9	Qishloq xo'jaligi bo'limi	505 883,0
10	Tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi (Markazlashgan hisobxona)	516 965,0
11	Obodonlashtirish boshqarmasi	14 098 871,0
12	Moliya bo'limi	1 234 310,0
13	Yoshlar ishlari agentligi hududi bo'limi	5 140 592,0
14	Kengash kotibiyatini saqlash xarajatlari	205 836,0
15	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	4 451 925,0
	shundan	
	O'zini-o'zi boshqarish organlari (MFYlar)	3 946 682,0
16	Hokimiyat	92 387 241,0
	shundan	
	Hokimlikni saqlash xarajatlari	2 572 721,0
	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	5 090 704,0
	Oila va xotin-qizlar bo'limi	3 372 791,0
	Ijtimoiy nafaqalar	64 443 000,0
	Ijtimoiy ko'nikma markazlari ("dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" va markazni saqlash xarajatlari)	130 167,0
	"Tashabbusli byudjet" jamg'armasiga o'tkaziladigan mablag'lar	12 528 850,0

	Hokim yordamchilari tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun ajratilgan mablag'lar	1 848 000,0
	Zaxira jamg'armasi	2 401 008,0
	Xarajatlar jami	255 030 688,0